

BOYSUN TUMANI BIBISHIRIN QISHLOG‘INING TARIXIY- ETNOGRAFIK TAVSIFI

Rahmonov Muhammad Habibullo o‘g‘li,
Termiz davlat universiteti Jahon tarixi
kafedrası o‘qıtuvchısı

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Boysun tumani Bibishirin qishlog‘ining tarixiy-etnografik xususiyatlari, an’anaviy xo‘jalik faoliyati hamda zamonaviy madaniy jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, qishloq aholisi hayotida chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilikning o‘rni, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Bibishirin hududida shakllangan urug‘-qabilaviy tarkib va ularning tarixiy kelib chiqishiga oid ma’lumotlar ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar:

Bibishirin, Balogardon, Omonxona, Hazrat Sulton Vali, Shirinobod, Safedhoki, Devorbars, Ashurboylar, Rahimboy, Zargariy.



Annotation:

This article analyzes the historical and ethnographic characteristics of Bibishirin village in Boysun district, Surkhandarya region, as well as its traditional economic activities and modern cultural processes. In particular, it highlights the role and socio-economic significance of animal husbandry, agriculture, and handicrafts in the life of the local population. The study also examines the clan-tribal composition formed in the Bibishirin area and information related to their historical origins.

Keywords:

Bibishirin, Balogardon, Omonkhona, Hazrat Sultan Vali, Shirinobod, Safedhokhi, Devorbars, Ashurboys, Rahimboy, Zargariy.

Аннотация:

В данной статье анализируются историко-этнографические особенности кишлака Бибиширин Байсунского района Сурхандарьинской области, а также традиционные хозяйственные занятия и современные культурные процессы. В частности, освещаются роль и социально-экономическое значение животноводства, земледелия и ремесленничества в жизни местного населения. Также рассматривается родоплеменной состав, сформировавшийся на территории Бибиширина, и сведения, связанные с их историческим происхождением.

Ключевые слова:

Бибиширин, Балогодарон, Омонхона, Хазрат Султан Вали, Ширинобод, Сафедхоки, Деворбарс, Ашурбои, Раҳимбой, Заргари.

О‘zbekistonning janubiy hududlaridan biri bo‘lgan Boysun tumani o‘zining boy tarixiy-madaniy merosi, qad-

imiy an‘analari va o‘ziga xos etnografik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu hudud qadimdan turli etnik guruhlar yashab kelgan, ularning turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, urf-odat va marosimlari bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Boysun vohasi nafaqat tarixiy jarayonlarning guvohi, balki an‘anaviy madaniyatning muhim markazlaridan biri sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Boysun tumanining Bibishirin qishlog‘i ham o‘zining qadimiyligi, aholisining turmush tarzi va boy madaniy an‘analari bilan diqqatga sazovordir. Qishloq aholisi asrlar davomida shakllangan an‘anaviy xo‘jalik turlari, jumladan chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Shu bilan birga, ularning urf-odatlari, marosimlari, oilaviy qadriyatlari hamda kundalik hayot tarzi etnolokal xususiyatlarning yorqin namunasini tashkil etadi.

Boysun tumani tarkibiga kiruvchi Bibishirin qishlog‘i tarixiy jihatdan qadimiy aholi manzillaridan biri hisoblanadi. Qishloqning paydo bo‘lishi va shakllanishi jarayoni Boysun vohasining umumiy tarixiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu hududda qadimdan tog‘ va tog‘oldi hududlarida yashovchi aholi guruhlari istiqomat qilib kelgan. Avvalo, Bibishirin qishlog‘i tarixiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu haqida turli rivoyat va tarixiy haqiqatlar mavjud. Bibishirin qabri Bibishirin mahallasi hududida, bog‘lar va hovlilar bilan o‘ralgan holda joylashgan. Ushbu qabr asrlar davomida mashhur bo‘lib kelganligi sababli, qishloq ham Bibishirin nomi bilan atalib kelinadi. Ziyoratgoh taxminan bir gektar maydonni egallaydi va uning hududida qabriston ham mavjud bo‘lib, hozirgi kunda ham dafn marosimlari amalga oshiriladi.

Mahalliy aholi tomonidan berilgan ma‘lumotlar va qishloq oqsoqollarining rivoyatlariga ko‘ra, ushbu qabrning kelib chiqishi qadimgi davrlarga, taxminan XIV asrga borib taqaladi. Boysun tumanining Omonkhona qishlog‘i hududida joylashgan Hazrat Sulton Vali ziyoratgohi bilan bog‘liq rivoyatlarda Amir Temurning ushbu hududga kelgani va Sulton Vali bilan uchrashib, uning duolarini olgani haqida ham ma‘lumotlar uchraydi. Tarixiy manbalarda Hazrat Sulton Vali maqbarasi bugungi kunda ham muhim ziyoratgoh sifatida saqlanib qolganligi qayd etiladi. Omonkhona qishlog‘i hududida joylashgan Hazrat Sulton Vali (XIV asr) ziyoratgohi Boysun vohasining muhim diniy va tarixiy maskanlaridan biri hisoblanadi. Ushbu shaxs haqida yozma tarixiy manbalarda aniq va batafsil ma‘lumotlar kam uchrasa-da, uning hayoti va faoliyati xalq og‘zaki rivoyatlarida keng yoritilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Hazrat Sulton Vali XIV asrda Balx shahrida tug‘ilgan bo‘lib, ilm va ma‘rifat izlab turli hududlarni kezgan. U o‘z safarlari davomida Omonkhona darasi hududiga kelib, shu yerda ma‘lum muddat yashagan va ruhiy kamolot maqsadida qirq kunlik chillaga kirgan. Shu sababli u “Balogardon” laqabi bilan mashhur bo‘lgan.

Ba‘zi tarixiy tadqiqotlarda (A. Xolmirzayev va S. Tursunov qaydlariga ko‘ra) Hazrat Sulton Vali – Sayid Shamsuddin nomi bilan ham tilga olinadi. Uning maqbarasi atrofida qadimda katta qabriston bo‘lganligi, uning maydoni taxminan 10 gektarga yetgani haqida ma‘lumotlar



mavjud. Rivoyatlarda ta'kidlanishicha, Hazrat Sulton Vali Omonxona hududida uzoq vaqt ibodat va zikr bilan mashg'ul bo'lgan. Uning shuhrati nafaqat mahalliy aholi, balki keng hududlar – Chag'oniyon va Chig'atoy ulusi hududlarigacha tarqalgan bo'lib, uning huzuriga ko'plab ziyoratchilar kelgan. Hazrat Sulton Vali qabrining yonida uning xalifalari va farzandlari dafn etilgani ham rivoyat qilinadi. Dastlab ushbu qabr ustida maxsus maqbara bo'lmagan, keyinchalik esa u qayta tiklanib, 2002-yilda ochiq ayvonli maqbara shaklida obod etilgan. Ziyoratgoh atrofida uch gektarlik bog' barpo etilib, 4 km uzoqlikdagi Olicha buloqdan quvur orqali suv olib kelinishi natijasida hudud obodonlashtirilgan. Bu esa ziyoratgohning ahamiyatini yanada oshirgan. Shu bilan birga, Shirinobod qishlog'i hududida joylashgan Bibishirin ziyoratgohi ham Hazrat Sulton Vali nomi bilan bog'liq rivoyatlar asosida shakllangan muqaddas maskan hisoblanadi. Rivoyatlarga ko'ra, Bibishirin Hazrat Sulton Valining singlisi bo'lib, u ham ma'rifatli va ma'naviy yetuk shaxs sifatida tasvirlanadi.

Xalq og'zaki an'analarida Bibishirinining qabri Hazrat Sulton Vali vasiyatiga ko'ra barpo etilgani aytiladi. Bu esa ikki ziyoratgoh o'rtasidagi ma'naviy va tarixiy bog'liqlikni ko'rsatadi. Rivoyatlarda aytilishicha, Sulton Vali taqdir taqozosi bilan Bibishirin hududida yashagan va uning singlisi Bibishirin ham ma'naviy jihatdan yuksak, ilm va tasavvuf yo'lida bo'lgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Aytishlaricha, Bibishirin kechalari Churak hududiga borib, u yerda buloq yonida ibodat va tafakkur bilan shug'ullangan, tasavvuf ahli bilan ruhiy muloqotda bo'lgan. Biroq bir

kuni uning bu holati akasi Sulton Vali tomonidan noto'g'ri tushuniladi. Natijada yuzaga kelgan ruhiy iztirob sabab Bibishirin Allohga duo qilib, yer yorilib uni o'z bag'riga olishini so'raydi. Rivoyatlarga ko'ra, mo'jiza yuz berib, yer yoriladi va Bibishirin g'oyib bo'ladi, faqat uning ro'moli uchi yer yuzida qoladi. Shundan so'ng bu joy muqaddas ziyoratgoh sifatida e'tirof etila boshlagan. Keyinchalik Sulton Vali bu hodisaning asl haqiqatini anglab yetadi va singlisining begunohligiga ishonch hosil qiladi. Shu sababli u ushbu joyda qabr qurdiradi va uni muhofaza qilishga kirishadi. Taxminan yetti asr davomida bu joy xalq orasida muqaddas maskan sifatida saqlanib kelmoqda. Bibishirin obrazi esa poklik, ma'rifat va ma'naviy yetuklik timsoli sifatida xalq og'zaki ijodida saqlanib qolgan.

Sovet davrida ushbu ziyoratgohga nisbatan munosabat murakkab bo'lgan. O'sha davrda ko'plab diniy va tarixiy yodgorliklarga e'tibor kamayganligi sababli Bibishirin ziyoratgohi ham ma'lum darajada qarovsiz qolgan. Mahalliy aholi xotiralarida ushbu davr bilan bog'liq turli voqealar, ziyoratgohni saqlab qolishga qaratilgan harakatlar

ham saqlanib qolgan.

Mustaqillik yillarida esa ushbu muqaddas maskanga boʻlgan eʼtibor yana ortib, uni saqlash, obodonlashtirish va tarixiy meros sifatida oʻrganishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Bugungi kunda Bibishirin ziyoratgohi Boysun tumani tarixiy-etnografik merosining muhim qismi sifatida xalq tomonidan eʼzozlanadi.

Bibishirin maqbarasi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-sonli “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq, madaniy meros obyektlari roʻyxatiga kiritilgan. Ushbu qarorga asosan Bibishirin maqbarasi XVI asrga oid tarixiy-madaniy yodgorlik sifatida davlat muhofazasiga olingan. Yodgorlik Bibishirin mahalla fuqarolar yigʻini hududida joylashgan boʻlib, davlat mulki hisoblanadi.

Bibishirin qishlogʻi mustaqillik davrida ikkita “Shirinobod” va “Bibishirin” mahallalariga boʻlingan. 1992-yilda tashkil etilgan boʻlib, umumiy maydoni 125 km² ni tashkil etadi. Mahallada 642 ta xonadon va 996 ta fermer xoʻjaligi mavjud boʻlib, unda 3 ming 600 dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Shirinobod toʻqqizta koʻchadan iborat boʻlib, ular Fayzli, Lalmikor, Oltin nur, Labisoy, Oʻrta soy, Yakkapista, Oyboʻriq, Saxovat va Safedhoki kabi nomlar bilan ataladi. Qishloq hududida tarixiy yodgorliklar va qadimiy maskanlar ham mavjud boʻlib, ular orasida Yuqori masjid, Quyi masjid, Qoʻrgʻoncha, Lalmikor, Oyboʻriq, Navchakka, Safedhoki, Devorbars, Qora boʻyin va Xoʻjamshukur kabi joy nomlari tilga olinadi. Shuningdek, “Rabot”, “Sebzor” va “Shirinobod” hududlari chegara mahallalar sifatida qayd etiladi. Bibishirin mahallasi esa 2006-yilda tashkil etilgan boʻlib, aholisi 4041 kishini tashkil etadi. Bu yerda 821 ta xonadon va 1023 ta oila istiqomat qiladi. Mahalla aholisi etnik jihatdan xilma-xil boʻlib, asosan toqchilar, tojiklar va oʻzbeklardan iborat.

Bibishirin qishlogʻida bir qator urugʻ va avlodlar mavjudligi aniqlangan. Ular orasida Ashurcholokiy (Ashurboylar), Rahimboy, Zargariy, Poshoyi, Shohqoragi, Toqchi, Karimberdigi, Miryoqubi, Miryodgori, Mirsibir,

Mirmuxtori hamda Qoʻngʻirot urugʻlari alohida qayd etiladi. Ayniqsa, Ashurboylar urugʻi son jihatdan koʻpchilikni tashkil etib, tarixiy rivoyatlarga koʻra, ularning asoschisi Ashurboy bobo boʻlgan. U siyosiy beqarorlik davrida Afgʻonistonning Balx hududidan Boysunga koʻchib kelib, shu yerda muqim yashab qolgan va Ashurcholokiylar sulolasiga asos solgan. Taʼkidlash joizki, Balx hududi tarixan tojik aholisi yashaydigan mintaqaga sifatida ham maʼlum. Bibishirin qishlogʻida Ashurboy avlodiga mansub quyidagi shaxsiy urugʻ yoʻnalishlari ham qayd etiladi: Avaz ibn Ashurboy, Norboy ibn Ashurboy, Xoʻjamurod ibn Ashurboy va Mirzoahmad ibn Ashurboy.

Boysyn tumani Bibishirin qishlogʻi aholisi qadimdan aralash xoʻjalik yuritib kelgan boʻlib, bogʻdorchilik bilan bir qatorda chorvachilik ham muhim oʻrin tutgan. Tarixiy jihatdan chorvachilik oila iqtisodiyotining asosiy tayanchi, aholining turmush darajasini taʼminlovchi muhim omil sifatida shakllangan. Hududning iqlimi, togʻli relyefi, yaylov va tekisliklari chorvachilikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratgan. Shu bois mahalliy aholi asosan qoʻy, echki, sigir, ot va tuya boqish bilan shugʻullangan.

Etnografik kuzatuvlarga koʻra, Bibishirin qishlogʻida deyarli har bir xonadonda chorva mavjud boʻlib, ayrim oilalarda bir necha bosh qoʻy-echki yoki sigir boqish anʼanaga aylangan. Bu esa chorvachilikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy hayotda ham muhim rol oʻynaganini koʻrsatadi. Hududning tarixiy yaylovlari — Kichkina, Kattaqorovul, Chashma Gʻali va Ketmonchopti kabi joylar qadimdan chorvadorlar tomonidan keng foydalanilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Bibishirin toqchi aholisi ajdodlari yirik chorvador boʻlib, ayrim oilalar minglab qoʻyga ega boʻlgan. Mahalliy xalq ogʻzaki ijodida chorvachilikning ahamiyatini ifodalovchi “**Sigir tugʻdi, kun tugʻdi**” kabi maqollar keng qoʻllanilgan. Ushbu ibora chorva, ayniqsa sigir, oila farovonligining asosiy manbai sifatida qaralganini anglatadi. Sigir suti, qaymogʻi, sariyogʻi va boshqa mahsulotlar aholi uchun asosiy oziq-ovqat manbalaridan biri boʻlib xizmat qilgan. Qishloq xoʻjaligi Bibishirin aholisining asosiy tirikchilik manbalaridan biri boʻlib, hududning lalmikor yerlarida asosan bugʻdoy, arpa, noʻxat va zigʻir kabi ekinlar yetishtirilgan. Dehqonchilik





ishlari an'anaviy usullar — omoch, ho'kiz va qo'l mehnati yordamida amalga oshirilgan. Bahor oylarida yer haydash va ekin ekish jarayonlari jamoaviy mehnat asosida tashkil etilgan. Mahalliy aholi xotiralarga ko'ra, qishloqda o'nlab tegirmonlar faoliyat yuritgan bo'lib, aholining don mahsulotlarini qayta ishlashda muhim rol o'ynagan. Shuningdek, ot va aravalardan transport vositasi sifatida keng foydalanilgan. Zig'ir moyi va uy noni mahalliy aholining kundalik ovqatlanish madaniyatida alohida o'rin tutgan.

Bibishirin va umuman Boysun hududida hunarmandchilik, xususan temirchilik ham rivojlangan. Temirchilik kasbi qadimdan zarur hunar sifatida shakllanib, dehqonchilik va chorvachilik uchun kerakli mehnat qurollarini tayyorlashga xizmat qilgan. Temirchilar tomonidan belkurak, bolta, o'roq, mix va boshqa xo'jalik buyumlari ishlab chiqarilgan. Og'zaki ma'lumotlarga ko'ra, Bibishirin qishlog'ida Xursand bobo kabi mashhur temirchi ustalar yashab o'tgan bo'lib, ularning mehnati orqali qishloq xo'jaligi va maishiy hayot uchun zarur asbob-uskunalar tayyorlangan. Mustaqillik yillarida ushbu an'anaviy hunarmandchilik yana tiklanib, yosh avlod tomonidan davom ettirilmoqda va bugungi kunda temirchilik ustaxonalari faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda Bibishirin qishlog'ida so'nggi uch yildan buyon "Boysun bahori" festivali muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Ushbu madaniy tadbir qishloqning nafaqat ma'naviy hayotini boyitish, balki uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo'shmoqda. Festival doirasida mahalliy urf-odatlar, xalq hunarmandchiligi, milliy taomlar va an'anaviy madaniyat namunalari keng namoyish etilib, hududning turizm salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Joriy yilda esa "Boysun bahori" festivalini o'tkazish muddatlari Surxondaryo viloyati hokimining alohida topshirig'iga muvofiq belgilandi va unga ko'ra mazkur madaniy tadbir 1–7 may kunlari o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu qaror festivalning tashkiliy jihatdan yanada mukammal o'tishini ta'minlash, uning hududiy qamrovini kengaytirish hamda mahalliy aholi va mehmonlar uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- C.Турсунов, Қ.Рашидов "Бойсун" Академнашр нашриёти, 2011. – 216-бет
- Rahmatulloh Shohimardonov "Dehai Bibishirin va zodagoni sarbalandi on", Surxon-nashr-2023. 72-bet
- Rўzimurod Қаландаров "Панжоб ва панжобликлар тарихи" Жайхун нашриёти Термиз – 1997 йил 92-бет
- Абдурасулов А. Алачопоним менинг. – Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2014. – 125 б.
- Аширов А. Ўзбекларнинг самовий қарашлари // Сирли олам. – Тошкент, 2002. – №4. – Б. 16–17.
- Бўриев О., Хўжамбердиев Т. Этнология атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Қарши: Насаф, 2003. – 112 б.
- Носирова З. Бойсун нақшларида баҳор ифори // Мозийдан садо. – 2009. – №1. – С. 117–119.
- Турсунов С., Пардаев Т., Махмадиева Н. Сурхандарё – этнографик макон. – Т.: Академнашр, 2012. – С. 232.
- Рахмонов М.Х. Тоғчи қавмларида чорва билан боғлиқ удумлар // Давр, замон, шахс (Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти: тарихий таҳлиллар мавзусидаги мақолалар тўплами). – Тошкент: "Тафаккур", 2020. – Б. 308–314.
- Raxmonov M.X. Surxon vohasi Toqchi qavmining an'anaviy turmush tarzi // Modern Science and Research. – Volume 2, Issue 4. – 2023 – UIF: 8.2. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7880143>. 720–722-betlar.
- Rakhmonov M.X. The Famous Chopogan of Takchi Residents of Alachopon // European Journal of Learning on History and Social Sciences. – Volume 1, Issue 5. – 2024. – DOI: <https://doi.org/10.61796/ejlhss.v1i5.548>. – P. 42–44. – Published by Silkroad Science Publishers (Portugal). (07.00.00; № 26).
- Raxmonov M.X. Surxon vohasi Boysun tumani Panjob qishlog'i aholisining nomoddiy madaniyatidan // Tamaddun nuri (The Light of Civilization). – 2024-yil, 6-son (57). 78–81-betlar. (07.00.00; № 35).